

BRUTSELLYOZ KASALLIGINING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI XUSUSIDA ADABIYOTLAR SHARXI.

Xo'jaxonov Shoxruzxon Idrisxo'ja o'g'li
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar Universiteti
Toshkent filiali mustaqil tadqiqotchisi*

Maxamadaliyeva Madinaxon Ulug'bek qizi
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar Universiteti
Toshkent filiali talabasi*

Qayumjonova Dilshodaxon Ilyos qizi
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar Universiteti
Toshkent filiali talabasi*

Annotation: This article describes the origin of brucellosis and prevention measures.

Keywords: Brucellosis, Brucella species, David Bruce, *Micrcoccus melitensis*, abortion, endometritis, vaccine.

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi kunda Brutsellyoz kasalligi fermer xo'jalik hayvonlariga va fermer xo'jalik tashkilotlariga katta iqtisodiy zarar keltirmoqda. Mamlakatda hayvonlarning kasalligi holati qiyin bo'lib qolmoqda, agar bu kasallikga qarshi to'g'ri kurash chorasini topilmasa zararlanish darajasi pasayishini emas aksincha ortishi kuzatilishi mumkin. Bu esa ko'plab fermer xo'jalik hayvonlarini xomila tashlashi, endometrit va o'lim xolatini, boshqa hayvonlarni havf ostida qolishiga sabab bo'ladi.

Brutsellyoz kasalligini kelib chiqish tarixi: Brutsellyoz qo'zg'atuvchisini birinchi marta 1886 yilda ingliz mikrobiologi David Bryus o'lgan odamning talog'idan ajratdi va *Micrcoccus melitensis* deb atadi. 1897 yilda Bing va Stribolt qoramollardan ajratadi va *Bact. abortus bovis* deb atadi, 1914 yilda D.Traum cho'chqalar tashlagan homilasidan ajratib *Bact.abortus suis* deb atadi. Amerikalik olim A.Ivens 1918 yilda ushbu qo'zg'atuvchilarni chuqur o'rganib, xususiyatlari jihatidan bir-biriga yaqinligini aniqladi va D. Bryus sharafiga hammasini bir avlodga kiritib *Brucella* deb nomladi. Hozirgi vaqtda oltita brusella turi mavjud bo'lib kasallikni qo'y va echkilarda-*Brucella melitensis*, qoramollarda-*Brucella abortus*, cho'chqalarda-*Brucella suis*, itlarda-*Brucella canis*, qo'chqorlarda-*Brucella ovis*, sichqonlarda-*Brucella neotomae* qo'zg'aydi. Qo'chqorlarda bu kasallik –infektsion epidedimit deb aytiladi.

Brutsellyoz patogenligi: Brutsellyoz yuqumli, surunkali o'tadigan kasallikdir. Barcha turdagi uy hayvonlar va yovvoyi hayvonlar, odamlar ham kasallanadi. U odamlarga kasal hayvon va uning mahsulotlarida o'tadi. Brutsellyoz enzootiyaning boshlanishida hayvonlarda yalpi homila tashlash, buning oqibatida yo'ldoshning tezda ajralmasligi, endometrit, bepushlik bilan namoyon bo'ladi. Ko'p hollarda klinik belgisiz kechadi. Brutsellalarning bir hayvon turidan boshqa turiga o'tishi –migrasiyasi, muhim epizootologik va epidemiologik ahamiyatga ega. Masalan *Br. melitensis* qoramollar va cho'chqalarda topilgan, shuning uchun bunday hayvonlar odamlarning brutsellyoz bilan kaallanishi manbai bo'lib qoladi. Shuningdek *Br. suis* qoramol va qo'ylar, echkilarga *Br. abortus* qo'y, echki va cho'chqalarga migrasiya qilishi aniqlangan. Odamlar hamma turdagi brusella mikroblari bilan kasallanishi mumkin, ammo qo'y echki brutsellari odamlar uchun nihoyatda yuqumli bo'lib, kasallik og'ir kechadi. Brutsellalar fakultativ, faqat hujayra ichida ayniqsa zararlangan hayvon organizmning retikuloendotelial sistemasini hujayralarining ichida yashab, ko'payadi. Brutsellalarning virulentligi o'zgaruvchan xususiyat bo'lib, u minimal zararlanish do'zasi bilan o'lchanadi. Minimal zaralovchi doza g'unajinlar uchun 2.5 mln.m.t. hisoblanadi. Brutsellyoz infektsiyasining kirish darvozalari og'iz bo'shlig'i va nafas yo'llarining shilliq qavatlarini, konyuktivani, teridir. Dengiz cho'chqasi *Br.melitensis*, *Br. abortus*,

Br suis yuqori virulentlik kulturasini hatto kichik dozasi bilan ham teri ostiga, konyuktivaga, og'iz orqali, aerogen shikastlanmagan terisiga surtilganda ham zararlanadi

Brutsellyoz kasalligini oldini olish chora-tadbirlari: Brutsellalar tashqi muhit ta'siriga chidamli bo'ladi. Nam tuproq, suvda 3-4 oy, qoramol tezagida past haroratda 160 kun, qo'y junida 1.5-5 oy, to'g'ri tushgan quyosh nurida 2,5 soat yashaydi. Sutda 8 kun, brinzada va pishloqda 45kun, yog'da 60 kun, sovuqda saqlangan go'shtda 20 kun kun yashaydi. Sut 70C ga qizdirilganda 30minut, qaynatilganda 1-2 minutda o'ladi. Shu sababli fermer xo'jaliklarga yangi keltiriladigan hayvonlarni sanitariya gigiyena qoidalariga rioya qilgan holda olib kelish, hayvonlarni saqlash va oziqlantirish qoidalariga amal qilish lozim. Xo'jaliklarda kasallik chiqqan hayvonlarni ajratish va ular saqlanadigan joylarni dizinfeksiya qilish lozim. Dizenfeksiya uchun 2 % li o'yuvchi natriy, 20 % yangi so'ndirilgan ohak, 2 % li formaldegid, 4 % kreolin kabi dizenfeksiya vositalarida foydalaniladi. Sutni 70 C haroratda 30 minut yoki 85-90 C haroratda 20 sekund pasterizasiyalanadi. Brusellyozga qarshi aktiv immunlash qilinadi. Sht N=82 dan tayyorlangan vaksinalar amaliyotda keng qo'llaniladi.

Xulosa

Mamlakatimizda brutsellyoz kasalligi xolatini ortib ketmasligi uchun Brusellyozga qarshi immunlash (vaksinatsa) qilinishi dizenfeksiya vositalarini qo'llanishi kerak. Xo'jaliklarda kasallangan hayvonlarni podadan vaqtida ajratib choralarini ko'rish lozim. Qachonki biz kasallikka qarshi kurashish choralarini to'g'ri tashkil qilsakgina fermer xo'jaliklarda kasallanish xolatini kamayishi va iqtisodiy zararlarni pastlashiga guvoh bolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yemelyanenko P.A Veterinariya mikrobiologiya M.Kolos 1982.
2. Timakov V.D. Mikrobiologiya Uchebnik.M.Medisina 1983.
3. Z.J.Shapulatova Mikrobiologiya.